

AHOLI TADBIRKORLIGINI KREDITLASHNI RIVOJLANTIRISHDA KONSTITUTSIYA VA BANK QONUNCHILIGINING O'RNI

Xusan Xusainov Baratovich

Kimyo Xalqaro Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

yangihayot456x@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-1546-3466>

Telefon raqam: +998(95)-850-34-56

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22654862>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 7-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 8-sentabr 2026-yil

Annotatsiya:

Mazkur maqolada O'zbekistonda aholi tadbirkorligini kreditlashni huquqiy tartibga solishning amaldagi holati tahlil qilingan hamda mavjud me'yoriy-huquqiy asoslarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari asoslangan. Tadqiqotda aholi tadbirkorligini kreditlashga oid qonunchilik hujjatlari, kreditlash mexanizmining huquqiy jihatlari, kredit resurslaridan foydalanish shartlari va tadbirkorlarning moliyaviy qo'llab-quvvatlanishini tartibga soluvchi me'yorlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar:

aholi tadbirkorligi, kreditlash, huquqiy tartibga solish, me'yoriy-huquqiy baza, kreditlash mexanizmi, kredit resurslari, tadbirkorlik faoliyati, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kredit risklari.

Kirish

Bugungi kunda aholi tadbirkorligini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishda kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda aholi tadbirkorligini kreditlash jarayonini samarali tashkil etish bilan bir qatorda, ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy bazaning takomillashuvi ham dolzarb masalalardan biridir. Kreditlash shartlarining huquqiy aniqligi, kredit oluvchilarning huquq va majburiyatlari, kredit risklarini boshqarish hamda tadbirkorlarning manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarining samaradorligi kreditlash tizimining barqaror ishlashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Biroq amaldagi tartib-taomillarni tizimli tahlil qilish, kreditlash jarayonida yuzaga kelayotgan huquqiy muammolarni aniqlash va mavjud me'yoriy-huquqiy normalarni zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Shu sababli mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda aholi tadbirkorligini kreditlashni huquqiy tartibga solishning amaldagi holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda uni takomillashtirishning ilmiy-amaliy yo'nalishlarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi (uslubiy materiallar sharhi). Aholi tadbirkorligini kreditlash masalalari mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Xususan, mahalliy tadqiqotlarda kreditlashning iqtisodiy mazmuni, bank kreditlarining tadbirkorlik faoliyatidagi o'rni, imtiyozli kreditlash

mexanizmlari, kredit risklarini boshqarish va kredit resurslaridan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur ilmiy yondashuvlarda kreditlash jarayonining bank-moliya tizimi bilan bog'liq jihatlari bilan bir qatorda, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari va kreditga layoqatlilikini baholash masalalari ham tadqiq etilgan.

B. Berkinov o'z qarshlarida, kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda kreditlash mexanizmlarining ahamiyatini alohida ta'kidlab, kredit resurslari tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishda muhim omil ekanligini asoslaganini ko'rishimiz mumkin¹.

Shu bilan birga, N. Jo'rayevning fikricha, aholi tadbirkorligini rivojlantirishda mikrokreditlash tizimi va imtiyozli kreditlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Olimning ta'kidlashicha, mazkur moliyaviy instrumentlar nafaqat tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi, balki aholi bandligini oshirish hamda daromadlar darajasini ko'paytirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi².

N. Shoaxmedovaning fikricha, yoshlarni tadbirkorlikka tayyorlashda ta'lim tizimi muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi³. Uning fikricha, mamlakatimizda tadbirkorlik asoslari, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish va biznes-rejalar tuzishga oid mavzularni qamrab olgan maxsus kurslar hamda dasturlar joriy etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologik asosini O'zbekistonda aholi tadbirkorligini kreditlashni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tizimli va qiyosiy tahlil qilish tashkil etadi. Tadqiqotda tizimli, institutsional va qiyosiy yondashuvlar, shuningdek, tahlil, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Aholi tadbirkorligini kreditlashning huquqiy asoslari zamonaviy iqtisodiy tizimda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini belgilovchi hamda kredit munosabatlarining samarali tashkil etilishini ta'minlovchi muhim institutsional omillardan biri hisoblanadi.

Xususan, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida aholi tadbirkorligini rivojlantirish, uning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy bazaning mukammalligi, tizimlilik va amaliy samaradorligiga bevosita bog'liqdir.

Mamlakatimizda aholi tadbirkorligini kreditlash bilan bog'liq munosabatlarning huquqiy asosini, avvalo, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi"⁴, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi⁵ va "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi⁶ qonunlar, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va kredit munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Mazkur huquqiy hujjatlar tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, bank tizimi orqali kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish hamda iqtisodiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aholi tadbirkorligini kreditlashning bevosita tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa-da, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarni belgilovchi, xususan, tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlash, qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash hamda moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishiga doir konstitutsiyaviy normalar mustahkamlangan (1-rasm).

¹ B. Berkinov. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. Toshkent: "Iqtisodiyot", 2018-yil. 98-101-betlar

² N. Jo'rayev. Tadbirkorlik faoliyati asoslari. Toshkent: "Iqtisodiyot", 2020-yil. 156-bet.


³ N. Shoaxmedova Biznesning ijtimoiy mas'uliyati konsepsiyasi doirasida yoshlar tadbirkorligi. Yoshlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili. – Q., 2024-yil. 899-b

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 1-maydagi yangi tahriri. XVII bob, 6 bo'lim 155 modda. <https://lex.uz/docs/-6445145>

⁵ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli qonuni. <https://lex.uz/docs/-4581969>

⁶ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi O'RQ-582-sonli qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4590452>

1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aholi tadbirkorligini kreditlash uchun huquqiy asos bo'luvchi konstitutsiyaviy normalar⁷.



Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41, 65 va 67-moddalarida mustahkamlangan mulk huquqining kafolatlanishi, iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik erkinligining ta'minlanishi hamda tadbirkorlik faoliyati yo'nalishini mustaqil belgilash huquqi aholi tadbirkorligini kreditlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini shakllantiruvchi muhim omillar hisoblanadi. Mazkur normalar tadbirkorlik subyektlarining kredit resurslaridan foydalanishi uchun zarur huquqiy-institutsional shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, aholi tadbirkorligini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirishda moliyaviy omillar bilan bir qatorda, kredit munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy-institutsional omillarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot doirasida "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining aholi tadbirkorligini kreditlash bilan bog'liq huquqiy normalari tizimli ravishda o'rganildi. Xususan, banklarning kredit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi, bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarning shartnomaviy asoslari, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini belgilash, kreditlarning qaytarilishini ta'minlash hamda kredit xizmatlari to'g'risida axborot berishga oid huquqiy normalarning mazmuni tahlil qilindi. Mazkur normalar aholi tadbirkorligini kreditlash jarayonining huquqiy mexanizmlarini shakllantirish va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlashda muhim institutsional asos bo'lib xizmat qiladi (2-rasm).

41-modda	65-modda	67-modda
har bir shaxsning mulkdor bo'lish huquqi kafolatlangan bo'lib, bank operatsiyalari, omonatlar va hisobvaraqlar sir tutilishi qonun bilan himoya qilinishi belgilangan.	davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratishi hamda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlashi belgilangan.	tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqligi belgilangan.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 1-maydagi yangi tahriri. IX bob. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar. 41-moddasi. XI bob. Fuqarolarning burchlari. 65 va 67-moddalari. <https://lex.uz/docs/-6445145>

2-rasm. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunda aholi tadbirkorligini kreditlashni tartibga soluvchi huquqiy normalar⁸

Yuqoridagi 2-rasm ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida aholi tadbirkorligini kreditlashning asosiy huquqiy mexanizmlari belgilangan. Xususan, bank kreditlarining qaytarilish, foizlilik va muddatlilik tamoyillari asosida ajratilishi, bank va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarning shartnoma asosida amalga oshirilishi hamda kredit foiz stavkalarining bank tomonidan mustaqil belgilanishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, kredit majburiyatlarini garov, kafolat, kafillik va qonunchilikda belgilangan boshqa usullar orqali ta’minlash kredit risklarini kamaytirishning muhim huquqiy vositasi hisoblanadi. Mazkur normalar bank manfaatlari bilan bir qatorda, tadbirkor-kredit oluvchining huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi shartnomaviy munosabatlarning huquqiy asosini shakllantiradi.

Tadqiqot doirasida O‘zbekiston Respublikasining “Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni tahlil qilinib, aholining tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning huquqiy-me’yoriy asoslari hamda mazkur jarayonni tartibga soluvchi tegishli normalarning mazmun-mohiyati o‘rganildi (3-rasm).

3-rasm. “Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunda aholi tadbirkorligini kreditlashni tartibga soluvchi huquqiy normalar⁹

60-modda. Markaziy bankning tartibga solishga doir vazifalari

Markaziy bankning kredit tashkilotlarini tartibga solish vakolatlarini, jumladan banklar bilan bog‘liq kredit berish bo‘yicha cheklovlarni belgilash imkoniyatini nazarda tutadi;

62-modda. Kredit tashkilotlari xizmatlari iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar

kredit tashkilotlari xizmatlari iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish, moliyaviy xizmatlarning ochiqligi hamda aholining va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan.

Yuqoridagi 3-rasmda keltirilgan ma’lumotlar tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, Markaziy bankka kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va banklarning kredit berish faoliyatiga doir cheklovlarni belgilash vakolatining berilgani kredit bozorida barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda aholi tadbirkorligini kreditlash va tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarning ko‘pligi hamda iqtisodiy islohotlar jarayonida ularga muntazam ravishda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi huquqiy normalarning yaxlitligi, izchilligi va barqarorligini ta’minlash masalasini dolzarb etmoqda. Mazkur holat tadbirkorlik subyektlari uchun huquqiy talablarni anglash va amaliyotda qo‘llash jarayonini murakkablashtirishi, kreditlash munosabatlarida huquqiy noaniqliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlik faoliyati va uni kreditlashga oid me’yoriy-huquqiy normalarni tizimlashtirish, o‘zaro takrorlanuvchi hamda qarama-qarshi qoidalarni bartaraf etish va huquqiy tartibga solishning yagona tamoyillarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu

⁸ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-580-sonli Qonuni. 5, 61, 62 va 63-moddalari. <https://lex.uz/docs/-4581969>

⁹ O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘RQ-582-sonli Qonuni. 60 va 62-moddalari. Markaziy bankning vazifalari. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4590452>

yondashuv kreditlash jarayonining huquqiy aniqligini oshirish, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda aholi tadbirkorligini rivojlantirish uchun barqaror huquqiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 1-maydagi yangi tahriri. 41,65 va 67-moddalar. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli qonuni. 5, 61, 62, 63-moddalar. <https://lex.uz/docs/-4581969>
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi O'RQ-582-sonli qonuni. 60 va 62-moddalar. <https://www.lex.uz/uz/docs/-4590452>
4. Berkinov B (2018) Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. Toshkent: "Iqtisodiyot".98-101-betlar
5. Alimardonov I (2023) Kichik biznes subyektlarini kreditlash: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: "Iqtisod-moliya". 13-bet.
6. [https://lex.uz/-O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.](https://lex.uz/-O'zbekiston-Respublikasi-qonunchilik-ma'lumotlari-milliy-bazasi)